URUSH VA INSON QISMATI: “IKKI ESHIK ORASI’’ VA “URISHING SO`NGI QURBONI’’ ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Ergasheva Rayxona O`tkirovna
TISU filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) kafedra o`qituvchisi.
Abdug`aniyeva Leyla Otajonovna
TISU pedagogika va gumanitar fanlar fakulteti
Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishi 2-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24074184

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O`zbekistan xalq yozuvchisi O`tkir Hoshimovning ‘’Ikki eshik orasi’’ romani va ‘’Urishning so`ngi qurboni’’ hikoyasida urush inson taqdiriga, oilaviy munosabatlarga, ijtimoiy holatiga va taqdiriga ta’siri qiyosiy tahlil qilinadi. Har ikkala asarda urush faqat jang maydonida emas, balki oddiy insonlarning kundalik hayotiga kirib keladigan, ularning ruhiy olami va o`zaro munosabatlarini o`zgartiradigan fojia sifatida namayon bo`ladi.*

Maqolada yozuvchining obraz yaratish mahorati, psixologik tasvir usullari, oilaviy munoabatlaining badiiy talqini va urushning ma`naviy oqibatlari o`rganiladi. Shuningdek, roman va hikoya janri orqali bir mavzuning turlicha yoritilishi ochib berilgan.

***Kalit so`zlar:*** *O`tkir Hoshimov, ‘’Ikki eshik orasi’’, ‘’Urishning so`ngi qurboni’’, urush, inson taqdiri, oila, ma`naviyat, ruhiy kechinma, badiiy obraz, psixologik tahlil, qiyosiy adabiyotshunoslik.*

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ романа «Между двумя дверями» и рассказа «Последняя жертва войны» народного писателя Узбекистана Уткира Хашимова с точки зрения влияния войны на судьбу человека, семейные отношения и социальное положение. В обоих произведениях война изображается не только как трагедия, происходящая на поле боя, но и как бедствие, проникающее в повседневную жизнь простых людей, изменяющее их внутренний мир и взаимоотношения.*

В статье рассматриваются мастерство писателя в создании художественных образов, приёмы психологического изображения, художественная интерпретация семейных отношений и духовные последствия войны. Кроме того, раскрываются особенности различного освещения одной и той же темы посредством жанров романа и рассказа.

Ключевые слова: *Уткир Хашимов, «Между двумя дверями», «Последняя жертва войны», война, судьба человека, семья, духовность, душевные переживания, художественный образ, психологический анализ, сравнительное литературоведение.*

Abstract. *This article presents a comparative analysis of the novel Between Two Doors and the short story The Last Victim of the War by Uzbek national writer O‘tkir Hoshimov, focusing on the impact of war on human destiny, family relationships, and social status. In both works, war is portrayed not merely as a tragedy occurring on the battlefield, but also as a calamity that penetrates the everyday lives of ordinary people, transforming their inner worlds and interpersonal relationships. The article examines the writer’s skill in creating literary characters, techniques of psychological portrayal, the artistic interpretation of family relationships, and the moral and spiritual consequences of war. Furthermore, it explores how the same theme is presented differently through the literary genres of the novel and the short story.*

Keywords: *O‘tkir Hoshimov, Between Two Doors, The Last Victim of the War, war, human destiny, family, spirituality, psychological experiences, literary character, psychological analysis, comparative literary studies.*

KIRISH: Adabiyot inson hayotining murakkab qirralarini, jamiyatdagi o`zgarishlarni, tarixiy voqealarning shaxs taqdiriga ta`sirini badiiy aks ettiruvchi muhim ma`naviy hodisadir.

Ayniqsa, urush mavzusi jahon va o`zbek adabiyotida insonparvarlik, tinchlik, vijdon, meir-oqibat hamda hayotning qadr-qimmati kabi masalalarni yoritishda muhim o`rin tutadi.

Urush insoniyat tarixidagi eng og`ir sinovlardan biri bo`lib, uning oqibatlari jang maydoni bilan cheklanmaydi. U oilalarning turmush tarzini o`rta asirdagi munosabatini, ziddiyatlarni, ayrim hollarda esa kishilarning ma`naviy dunyosiga ham katta ta`sir o`tkazadi.

Mazkur ikki asarni qiyoslar ekanmiz ‘’Ikki eshik orasi’’ romanida urushning keng manzarasi, turli qahramonlar hayoti orqali hayotning og`ir zarbalari aks etsa, ‘’Urishning so`ngi qurboni’’ hikoyasida urushdan keyingi hayot, inson taqdiri va ma`naviy dunyosini yorqin kurstib beradi.

Maqola maqsadi-yozuvchi O`tkir Hoshimov roman janrida yaratgan ‘’Ikki eshik orasi’’ asari bilan hikoya janrida yaratgan ‘’Urishning so`ngi qurboni’’ asarlarini qiyosiy tahlil qilish.

Bir yozuvchi ikki asar yordamida urushning jamiyatga ta`siri va urushdan keying a`naviy va ruhiy inqirozini ochiq bayon etish.

ASOSIY QISIM: O`tkir Hoshimovning ‘’Ikki eshik orasi’’ romani va o`zbek xalqining ikkinchi jahon urushi davridagi hayoti, front ortidagi mashaqqatlari va murakkab taqdirini aks ettiruvchi yirik nasriy asardir. Asarda voqealar birgina qahramon bilan cheklanib qolmaydi, balki bir-biri bilan uzviy bayon etiladi. Romanning o`zi ham ramziy ma`no ya`ni ‘’Ikki eshik orasi’’.

Bunda inson tug`ilganidan toki bu dunyoni tark etishgacha bo`lgan vaqt oralig`ida qilgan ishlari, amallari orqali namayon bo`ladi. Roman qahramonlarining qismati ham ayanchlidir. Kimsan bilan Robiyani misol qilib olsak, ularning sof sevgisini nima ayirdi deb o`ylaysiz? Yoki Shomurod bilan Ra`nochi, axir ular bir-birini sevar edilarku… Zokir bilan Zuxra kelinchi, nega Zuxra kelin Kozim bilan xiyonat qiladi? Muzaffar va Munavvarning hayotichi? Nega ular birga bo`lolmadi deb o`ylaysiz Qora amma, Orif oqsoqol nega baxtsiz. Bariga nima sababchi… Albatta, urush. Qisman ikkinchi jahon uushdagi insonlar asar orqali yoritib beryapdi.

“Urishning so`ngi qurboni’’ hikoyasida O`tkir Hoshimov urush mavzusini bir oilaning hayoti orqali yoritib beryapdi. Asarda Shoikram, uning onasi Umri xola, ukasi Shone`mat va oiladagi boshqa kisilarning taqdiri orqali urush davridagi moddiy yetishmovchilik, ro`zg`or tashvishlari va oilaviy mas`uliyat uning ruhiy holatiga salbiy ta`sir korsatadi. U kundalik qiyinchiliklari qarshisida sabrsizlanadi, atrofdagi insonlarga nisbatan norozilik bildiradi. Biroq hikoyani faqat shoikromning shaxsiy xatosi haqidagi voqea sifatida talqin qilish yetarli emas.

Unda urush davridagi muhtojlik, qo`rquv va ishonchsizlikning insoniy munosabatlarga ta`siri ham muhim o`rin tutadi. Shone`matning kasalligi va oiladagi umumiy muhtojlik ham fojiaviy ruhini kuchaytiradi. Bir hovlida yashagan aka-ukalar bir-biridan xabar olmaydi. Shoikromning birgina noto`g`ri qarori bilan onasi o`lib ketadi, lekin Shoikrom ham hovlisidagi qulupnaylarni o`z oilasi uchun yetishtirayotgan edi. Urush insonlarni shu darajada qiynab qo`yganki, kasal ukasidan xabar ololmay, hovlisga o`z onasi qulupnay o`g`irlab olganini ham bilmaydi.

Asar so`ngida esa oansi Umri xola fojiali tarzda vafot etdi va urush tugagani e`lon qilinadi. O`quvchining ruhiyatiga ham sezilarli darajada ta`sir qiladi.

Mazkur asarning qiyosiy tahlilida janr xususiyatlariga ham alohida e`tibor berish lozim.

Roman va hikoya bir-biridan voqealar holati, obrazlar tizimi, kompazitsion qurilishi va badiiy tasvir imkoniyatlari bilan farqlanadi.

‘’Ikki eshik orasi’’ roman janrining keng imkoniyatlaridan foydalanib, bir davrning murakkab manzarasini turli qahramonlar taqdiri orqali ochib beradi. Unda insonning hayot yo`li, o`zaro munosabatlari bir butun badiiy tizimga birlashadi. Shu sababli urushning alohida oilalarga va butun jamiyatga ko`rsatgan ta`sirini kengroq anglash mumkin. ‘’Urushning so`ngi qurboni’’ hikoyasida esa voqealar ixchamroq shaklda beriladi. Yozuvchi bir oilaning hayotidagi keskin vaziyatni tanlab, uning sabab va oqibatlarini badiiy jihatdan umumlashtiradi.

XULOSA: O`tkir Hoshimov ‘’Ikki eshik orasi’’ romani va ‘’Urishning so`ngi qurboni’’ hikoyasi urush mavzusini inson taqdiri, oilaviy munosabatlar va ma`naviy qadriyatlar bilan keng ko`lamda ochib bergan. Unda urush davri va undan keyingi asoratlar haqida turli obrazlar yordamida yaqqol gavdalantirgan. Ikkala asarda ham urush insoniyat hayotiga qiyinchilik, mehr-oqibatning yo`qlishini, moddiy inqirozlarga sababchi bo`lganligi haqida bayon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ‘’Urushning so`ngi qurboni’’ hikoyasining matni – Tafakkur.net electron kutubxonasi.
2. O`tkir Hoshimov. ‘’Urushning so`ngi qurboni’’ hikoyalar- Toshkent. Ziyo nashr, 2019-yil 144-bet.
3. O`tkir Hoshimov. ‘’Ikki eshik orasi’’ roman-Toshkent. Nurli dunyo, 2022-yil 214-bet.
4. O`tkir Hoshimov. ‘’Ikki eshik orasi’’ roman – Toshkent. Shrq, 2012-yil 24-bet.